| <i>Axrоров Voris Yunusovich, Boltayeva Jaxona Ulug'bek qizi</i>                                                                                       |     |
| Umumta'lim maktablarida 7-sinf biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....            | 389 |
| <i>Turakulova Mehriniso Nuriddinovna, Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna, Allanzarova Natalya Aleuatdinovna</i>                                         |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning mavjud holati va rivojlantirish strategiyalari ...                                             | 393 |
| <i>Mamadaliyeva Mumtozbegin</i>                                                                                                                       |     |
| 6–7 yoshli bolalarning bilim olishga faol qiziqishini rivojlantirish metodikasi .....                                                                 | 396 |
| <i>Artikova Muhayyo Botiraliyevna, Abduxolisova Gulsanam O'ktambek qizi</i>                                                                           |     |
| The Main Peculiarities of Abbreviations in Modern English.....                                                                                        | 399 |
| <i>Absalomova Aziza Baxodir qizi</i>                                                                                                                  |     |
| Autizmli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bir qator terapiya va metodlardan foydalanish .....                                                  | 404 |
| <i>Yoqubova Hurriyat Burxonovna</i>                                                                                                                   |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'yinlar, virtual reallik va geymifikatsiya orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish.....                                | 407 |
| <i>Xaitova Nazokat</i>                                                                                                                                |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda tabiiy materiallardan foydalanishning pedagogik usullari.....               | 411 |
| <i>Rustamova Manzura Mirkamalovna, Qo'ziyeva Umriniso Muzaffar qizi</i>                                                                               |     |
| Bo'lajak muhandislarning loyihalash ko'nikmalarini klaster muhitida rivojlantirish modellari .....                                                    | 415 |
| <i>Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Sherzod Eshonqulov</i>                                                                                             |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish .....                                                                  | 420 |
| <i>Ermatova Mamlakat Qadirkulovna</i>                                                                                                                 |     |
| 9-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda iqtisodiy ko'nikmalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....                                     | 423 |
| <i>Eliboyeva Lola Sulaymonovna</i>                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Texnologiya asosidagi ingliz tili o'qitish va o'quvchi mustaqilligi: farmatsevtika talabalari misolida .....                                   | 427 |
| <i>Ikranova Shohsanam Ravshanboy qizi</i>                                                                                                      |     |
| Maqollar asosida ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari (Afg'oniston dariy tilli maktablar misolida) ..                              | 430 |
| <i>Samadi Nooria</i>                                                                                                                           |     |
| Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi .....                  | 434 |
| <i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldosheva</i>                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... | 440 |
| <i>Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi</i>                                                                                                         |     |
| Shaxsning individual intellektual rivojlanishi pedagogik muammo sifatida .....                                                                 | 444 |
| <i>Ol'tiboyeva Kamola Sharofjon qizi</i>                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar qiziqishini aniqlash yo'llari ...                                | 448 |
| <i>Qalandarova Yulduz G'ayrat qizi</i>                                                                                                         |     |
| Проблемы физического воспитания студентов и пути их решения .....                                                                              | 454 |
| <i>Ходжанов Азиз Рахимович</i>                                                                                                                 |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi .....                 | 458 |
| <i>Kayumova Nargiza Mirziyatovna</i>                                                                                                           |     |
| Jamiyatda sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining o'rni .....                                    | 461 |
| <i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>                                                                                                             |     |
| Yadro itqitish sport turida kuch tayyorgarligining biomexanik va funksional ahamiyati .....                                                    | 466 |
| <i>Djabbarov Axror Islomovich</i>                                                                                                              |     |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik tayyorgarligini takomillashtirish .....               | 469 |
| <i>Axmedova Laylo Baxtiyor qizi</i>                                                                                                            |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan strategiyalar .....                         | 475 |
| <i>Urazimbetova Aygul Aralbayevna</i>                                                                                                          |     |
| Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....                        | 482 |
| <i>Kamolova Yulduzxon Ma'murjon qizi</i>                                                                                                       |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikni amalga oshirish texnologiyasi ..... | 488 |
| <i>Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Jo'rabayeva Nozima Bekmurod qizi</i>                                                                          |     |
| Psixologik zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etishda psixokorreksion mexanizmlar .....                                                         | 491 |
| <i>Tursunpo'latova Zaxro Zafar qizi</i>                                                                                                        |     |
| Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish natijalari .....          | 496 |
| <i>Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</i>                                                                                                       |     |
| Bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidagi kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy o'yinlarning o'rni .....                            | 501 |
| <i>Berdiyeva Umida G'oyibberdiyevna</i>                                                                                                        |     |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning neyropedagogik yondashuvlar asosida kognitiv rivojlantirishning mohiyati .....                          | 505 |
| <i>Aliyeva Odila Madamin qizi</i>                                                                                                              |     |
| Emotional Intelligence and Perceptive Ability: Keys to Pedagogical Success .....                                                               | 508 |
| <i>Abdurakhimov Shokhasim Abdurakhmonovich</i>                                                                                                 |     |
| Bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari .....                                        | 511 |
| <i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>                                                                                                           |     |
| Abdulla Avloniy pedagogik g'oyalarini zamonaviy boshlang'ich ta'lim bilan integratsiyalash .....                                               | 515 |
| <i>Daliyeva Eliza Zokir qizi</i>                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda Mahmud Qoshg'ariy merosidan foydalanish.....                                       | 519 |
| <i>Eliboyeva Lola Sulaymonovna, Ravshanova Sarvinoz O'ktamjon qizi</i>                                                                      |     |
| Derivation and Nominalization in Medical Terminology: A Comparative Model of Term and Process Name Formation in English and Uzbek .....     | 523 |
| <i>Gulnigor Yazdonkulova</i>                                                                                                                |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda mexanizmlari.....                       | 526 |
| <i>Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi</i>                                                                                                     |     |
| Ta'lim sifatini boshqarishga tizimli yondashish hamda pedagogikada PDCA modelining ahamiyati .....                                          | 530 |
| <i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Xolmatova Maftuna Turdimat qizi</i>                                                                   |     |
| Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kimyo ta'limidagi o'rni.....                                                               | 535 |
| <i>Jumaniyazova Mahliyo Qahramonovna</i>                                                                                                    |     |
| Inklyuziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish ...                               | 539 |
| <i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</i>                                                                                                      |     |
| Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish jarayonlari .....                                                                             | 543 |
| <i>Kenjayeva Iroda Alisherovna</i>                                                                                                          |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....        | 546 |
| <i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>                                                                                                        |     |
| O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.....                              | 550 |
| <i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>                                                                                                        |     |
| Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....                     | 553 |
| <i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>                                                                                                    |     |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish .....                            | 559 |
| <i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>                                                                                                       |     |
| TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi .....                              | 562 |
| <i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>                                                                                                         |     |
| Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli .....                    | 566 |
| <i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>                                                                                                       |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish ..... | 569 |
| <i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>                                                                                                     |     |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....                 | 574 |
| <i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>                                                                                                     |     |
| The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution .....                                                | 580 |
| <i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>                                                                                |     |
| Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....                           | 583 |
| <i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>                                                                                                        |     |
| Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....                                                             | 586 |
| <i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>                                                                 |     |
| Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik .....                                            | 590 |
| <i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>                                                                                                          |     |
| O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....                                                     | 594 |
| <i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>                                                                                                     |     |
| Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida .....                                                         | 596 |
| <i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari .....                                    | 599 |
| <i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish .....                                 | 602 |
| <i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>                                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari .....                   | 605 |
| <i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>                                                                                                                |     |
| O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari .....                                                                     | 609 |
| <i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>                                           |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ..... | 612 |
| <i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari .....                                                       | 618 |
| <i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>                                                                                                                 |     |
| Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi .....                                                            | 621 |
| <i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>                                                                                                                        |     |
| Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati .....                                                                                    | 625 |
| <i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>                                                                                                                    |     |
| Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан .....                       | 628 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>                                                                                               |     |
| Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста .....                            | 631 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>                                                                                               |     |
| Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов .....                                          | 634 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>                                                                                                    |     |

# SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASI RESURSLARI VA ULARNING OBYEKTIV KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI O'RGANISH NATIJALARI

Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich

Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shifokorlarning kasbiy rivojlanishida psixologik omillarning o'rni, ularning dolzarbligi va amaliy ahamiyati batafsil yoritilgan. Tadqiqotda shifokorning kasbiy faoliyatida stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, motivatsiya, kommunikativ ko'nikmalar hamda kasbiy qoniqish kabi psixologik jihatlarning muhimligi tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik omillarning shifokorlar mehnat samaradorligi, bemorlar bilan muloqot sifati va professional o'sishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, tibbiyot, kasbiy motivatsiya, motiv, maqsad, ehtiyoj, kasbiy tayyorgarlik.

**Abstract:** This article examines the role and relevance of psychological factors in the professional development of doctors. The study analyzes the importance of stress resistance, emotional stability, motivation, communication skills, and professional satisfaction in medical practice. It also explores the impact of psychological factors on work efficiency, the quality of doctor-patient communication, and professional growth. The findings highlight the necessity of improving professional training and developing psychological support systems for healthcare professionals.

**Key words:** motivation, medicine, professional motivation, motive, goal, need, professional training.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль и актуальные аспекты психологических факторов в профессиональном развитии врачей. В ходе исследования анализируется значение стрессоустойчивости, эмоциональной стабильности, мотивации, коммуникативных навыков и профессиональной удовлетворенности в деятельности врача. Также изучается влияние психологических факторов на эффективность труда, качество общения с пациентами и профессиональный рост медицинских работников. Результаты исследования подтверждают необходимость совершенствования системы профессиональной подготовки и психологической поддержки медицинских кадров.

**Ключевые слова:** мотивация, медицина, профессиональная мотивация, мотив, цель, потребность, профессиональная подготовка.

## KIRISH

Shifokorlar professional karyerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, shifokorlarning professional karyerasini shakllantirishda eng muhim omillardan biri ularning ichki va tashqi resurslaridir. Ichki resurslar orasida shaxsiy motivatsiya, o'zini rivojlantirish istagi, professional qarorlar qabul qilish qobiliyati, emotsional barqarorlik va refleksiya ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Tadqiqot davomida 50 nafar shifokorning 78 foizida ichki resurslar yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Bu shifokorlar murakkab vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilgan, ish samaradorligi hamda bemorlar bilan muloqot sifati yuqori darajada saqlagan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda psixologlar tomonidan "resurs" tushunchasiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Quyida resurslar psixologiyasi sohasida izlanishlar olib borgan Ananyev V. A., Bodrov V. A., Vodopyanova N. Ye., Leon-tyev D. A., Muzdibaev K., Xazova S. A. kabi olimlarning ilmiy qarashlariga murojaat qilindi.



K. Muzdibaev (1998) resurslarni hayotiy qiyinchiliklarni yengish nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, shaxsiy va muhit resurslarini safarbar etish hamda ulardan optimal foydalanish orqali inson murakkab hayotiy vaziyatlarni yenga oladi. Hatto resurslarning mavjudligining o'zi ham moslashuvchanlik va qo'llab-quvvatlovchi funksiyalarni bajaradi. Resurslar atrof-muhit talablarini qondirish uchun ishlatiladigan inson va jamiyat imkoniyatlarini ifodalaydi hamda odamlar o'rtasidagi almashinuv predmetiga aylanishi mumkin.

K. Muzdibaev shaxsiy va ijtimoiy resurslarni ajratib ko'rsatadi hamda ijtimoiy tuzilmalarda resurslarning turli shakllarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiy maqomi past bo'lgan shaxslar stressli holatlarga nisbatan sezgirroq bo'ladi. Biroq, yetarli miqdordagi resurslar mavjud bo'lgan taqdirda ham, madaniy qadriyatlar, jamoatchilik fikri va shaxsiy sifatlar tufayli ulardan har doim ham samarali foydalanish imkoniyati bo'lavermaydi.

Tashqi resurslar esa ish sharoiti, jamoaviy qo'llab-quvvatlash, rahbarlik uslubi, professional treninglar va malaka oshirish dasturlari bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shifokorlar ish sharoiti va rahbarlik tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash bilan qanchalik uyg'unlashsa, ularning ob'ektiv ish natijalari shunchalik yuqori bo'ladi. Jumladan, yaxshi tashkil etilgan jamoa va samarali rahbarlik sharoitida ish samaradorligining 15–20 foizga oshgani kuzatildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ichki va tashqi resurslarning o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ichki motivatsiyasi kuchli bo'lgan shifokorlar tashqi resurslardan samarali foydalanadi va ob'ektiv ko'rsatkichlarda sezilarli yaxshilanishni namoyon etadi. Ushbu natijalar shifokorlarning professional rivojlanishi va ish samaradorligini oshirishda ichki va tashqi resurslarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shifokorlarning professional karyera resurslarini aniqlashda psixologik va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Turli metodikalar yordamida olingan natijalarni o'zaro solishtirish va korrelyatsion aloqadorlikni aniqlash tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu tahlillar orqali shifokorlarning ichki motivatsiyasi, kasbiy qoniqishi, malakasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi hamda ob'ektiv ish natijalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi.

**1-jadval: Shifokorlarning ichki motivatsiyasi, kasbiy qoniqishi, malakasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va ob'ektiv ish natijalari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatkichlari**

| № | Metodika                         | O'Ichangan resurslar                                                                  | Obyektiv ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik                               |
|---|----------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|
| 1 | G'.R. Abdullayev metodikasi      | Ichki motivatsiya, kasbiy qoniqish                                                    | Ish samaradorligi, kasbiy barqarorlik                                  |
| 2 | M.S. Tojiboyev metodikasi        | Professional faoliyat, ijtimoiy muhit bilan aloqalar                                  | Karera rivojlanishi, jamoaviy samaradorlik                             |
| 3 | B.M. Karimova metodikasi         | Malaka oshirish, motivatsiya                                                          | Lavozimga ko'tarilish, ish samaradorligi                               |
| 4 | D.E. Super                       | Shaxsiy qadriyatlar, rollar, tajriba                                                  | Karera rivojlanishi, ish qoniqishi                                     |
| 5 | J.Holland metodikasi             | Shaxsiy qiziqishlar va xususiyatlar                                                   | Kasbiy muvaffaqiyat, qoniqish                                          |
| 6 | Maslach va Leiter metodikasi     | Burnout sindromi                                                                      | Ish samaradorligi, bemor qoniqishi                                     |
| 7 | Edgar Sheyn metodikasi           | Karera motivlari (texnik, menejment, avtonomiya, xavfsizlik, ijodkorlik, qiyinchilik) | Lavozimga ko'tarilish, ish samaradorligi, malaka oshirish              |
| 8 | Mualliflik so'rovnoma-intervyusi | Optimizm, umid, moslashuvchanlik                                                      | Operatsiyalar/protseduralar soni, bemor qoniqishi, kasbiy muvaffaqiyat |

**2-jadval: G'.R. Abdullayevning "Strukturaviy so'rovnoma va intervyyalar" so'rovnomasi bo'yicha shifokorlarning ichki motivatsiyasi va kasbiy qoniqishining ob'ektiv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs          | Ob'ektiv ko'rsatkich | $r_s$ | Izoh                  |
|-----------------|----------------------|-------|-----------------------|
| Ichki motiv     | Ish samaradorligi    | 0,55  | O'rta darajada ijobiy |
| Ichki motiv     | Kasbiy barqarorlik   | 0,57  | O'rta- kuchli ijobiy  |
| Kasbiy qoniqish | Ish samaradorligi    | 0,52  | O'rta darajada ijobiy |
| Kasbiy qoniqish | Kasbiy barqarorlik   | 0,62  | Kuchli ijobiy         |



Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, ichki motiv va ish samaradorligi ( $r_s = 0,55$ ) o'rta darajada ijobiy bog'liqlikka ega bo'lib, bu motivatsiya bilan ish faoliyati o'rtasida sezilarli ta'sir mavjudligini anglatadi. Ichki motiv va kasbiy barqarorlik ( $r_s = 0,57$ ) o'rta-kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi, ya'ni ichki motiv yuqori bo'lsa, kasbiy barqarorlik ham yuqori bo'lishini bildiradi. Kasbiy qoniqish va ish samaradorligi ( $r_s = 0,52$ ) o'rta darajada ijobiy bog'liqlikka ega bo'lib, kasbiy qoniqish ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi. Kasbiy qoniqish va kasbiy barqarorlik ( $r_s = 0,62$ ) esa kuchli ijobiy bog'liqlikni namoyon etdi, bu qoniqish kasbiy barqarorlik uchun asosiy omil ekanligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, ichki motiv va kasbiy qoniqish ish samaradorligi hamda kasbiy barqarorlikni prognoz qilishda asosiy indikatorlar hisoblanadi.

**3-rasm: "Kuzatuv va ijtimoiy intervyulari" metodikasi bo'yicha shifokorlarning professional faoliyati bilan ijtimoiy muhit aloqalari o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs                      | Ob'ektiv ko'rsatkich | $r_s$ | Izoh                  |
|-----------------------------|----------------------|-------|-----------------------|
| Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash | Karera rivojlanishi  | 0,54  | O'rta darajada ijobiy |
| Professional faoliyat       | Ish samaradorligi    | 0,51  | O'rta darajada ijobiy |

Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va karera rivojlanishi ( $r_s = 0,54$ ) - o'rta darajada ijobiy bo'lib, professional faoliyat va ish samaradorligi ( $r_s = 0,51$ ) - o'rta darajada ijobiy natijani ko'rsatdi, demak, ijtimoiy muhit shifokorlarning professional faoliyatida samaradorlikni oshirib, karera rivojlanishiga ta'sir qiladi.

**4-jadval: "Empirik eksperimentlar va malaka oshirish" so'rovnomasi bo'yicha shifokorlarning karera rivojlanishi bilan ish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs          | Ob'ektiv ko'rsatkich  | $r_s$ | Izoh                  |
|-----------------|-----------------------|-------|-----------------------|
| Malaka oshirish | Ish samaradorligi     | 0,48  | O'rta darajada ijobiy |
| Motivatsiya     | Lavozimga ko'tarilish | 0,50  | O'rta darajada ijobiy |

Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, malaka oshirish va ish samaradorligi ( $r_s = 0,48$ ) - o'rta darajada ijobiy bo'lib, motivatsiya va lavozimga ko'tarilish ( $r_s = 0,50$ ) - o'rta darajada ijobiy natijani ko'rsatdi, demak malaka oshirish va motivatsiya ish samaradorligi va lavozimga ko'tarilishga sezilarli ta'sir qiladi.

**5-jadval: "Karera rivojlanish" so'rovnomasi bo'yicha shifokorlar hayotining turli bosqichlarda shakllanishi, shaxsiy qadriyatlar va tajribalarning kasbiy faoliyatlari bilan bog'liqligi natijalari**

| Resurs              | Obyektiv ko'rsatkich | $r_s$ | Izoh                  |
|---------------------|----------------------|-------|-----------------------|
| Shaxsiy qadriyatlar | Karera rivojlanishi  | 0,46  | O'rta darajada ijobiy |
| Tajriba             | Ish qoniqishi        | 0,49  | O'rta darajada ijobiy |

Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, shaxsiy qadriyatlar va karera rivojlanishi ( $r_s = 0,46$ ) - o'rta darajada ijobiy bo'lib, tajriba va ish qoniqishi ( $r_s = 0,49$ ) - o'rta darajada ijobiy natijani ko'rsatdi, demak, shaxsiy qadriyatlar va tajribalar karera rivojlanishi va kasbdan qoniqishga ta'sir qiladi.

**6-jadval: "Shaxsiy qiziqishlar va xususiyatlarni aniqlash" testi bo'yicha shifokorlar uchun eng mos faoliyat yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs   | Ob'ektiv ko'rsatkich | $r_s$ | Izoh                  |
|----------|----------------------|-------|-----------------------|
| Qiziqish | Kasbiy muvaffaqiyat  | 0,52  | O'rta darajada ijobiy |
| Qiziqish | Ish qoniqishi        | 0,49  | O'rta darajada ijobiy |

Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, qiziqish va kasbiy muvaffaqiyat ( $r_s = 0,52$ ) - o'rta darajada ijobiy bo'lib, qiziqish va kasbiy qoniqish darajasi ( $r_s = 0,49$ ) - o'rta darajada ijobiy natijani ko'rsatdi, demak, shaxsiy qiziqishlariga mos faoliyatda faoliyat olib boradigan shifokorlar ish samaradorligi va kasbdan qoniqishga erishadilar.

**7-jadval: Maslach va Leiterning "Shifokorlar burnout sindromini baholash" so'rovnomasi bo'yicha shifokorlarning burnout darajasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs  | Obyektiv ko'rsatkich | $r_s$ | Izoh                  |
|---------|----------------------|-------|-----------------------|
| Burnout | Ish samaradorligi    | -0,48 | O'rta darajada salbiy |
| Burnout | Bemor qoniqishi      | -0,44 | O'rta darajada salbiy |



Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, burnout va ilsh samaradorligi ( $r_s = -0,48$ ) – o'rta darajada salbiy bo'lib, burnout va bemorlar qoniqishi darajasi ( $r_s = -0,44$ ) – o'rta darajada salbiy natijani ko'rsatdi, demak, shifokorlarda burnout darajasi yuqori bo'lsa, ish samaradorligi va bemorlarning qoniqishi darajasi ham pasayadi.

**8-jadval: "Karera motivlari va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash testi" bo'yicha, shifokorlarning karera yo'nalishiga mos motivlari o'rtasidagi bog'liqlik natijalari**

| Resurs          | Ob'ektiv ko'rsatkich  | $r_s$ | Izoh                  |
|-----------------|-----------------------|-------|-----------------------|
| Texnik motiv    | Lavozimga ko'tarilish | 0,53  | O'rta-kuchli ijobiy   |
| Menejment motiv | Ish samaradorligi     | 0,57  | O'rta-kuchli ijobiy   |
| Avtonomiya      | Malaka oshirish       | 0,51  | O'rta darajada ijobiy |

Korrelyatsiya tahlilidan ko'rinadiki, texnik motivlar va lavozimga ko'tarilish ( $r_s = 0,53$ ) o'rta-kuchli ijobiy bog'liqlikka ega. Menejment motivlari va ish samaradorligi ( $r_s = 0,57$ ) o'rta-kuchli ijobiy bog'liqlikni, avtonomiya va malaka oshirish ( $r_s = 0,51$ ) esa o'rta darajada ijobiy natijani ko'rsatdi. Bu holat karera yo'nalishiga mos motivlar ish samaradorligi va karera rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligini anglatadi.

Tadqiqot davomida shifokorlarning professional faoliyatidagi obyektiv ko'rsatkichlar, xususan, ish samaradorligi, lavozim o'sishi, malaka darajasi va mukofotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ish staji va malaka darajasi ko'rsatkichlari shifokorlarning ichki va tashqi resurslari bilan bevosita bog'liq. Masalan, yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan shifokorlar qisqa vaqt ichida lavozim o'sishi va ish samaradorligi bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatgan.

Shuningdek, ish samaradorligi va kasbiy qoniqish o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqotga jalb qilingan shifokorlarning 65 foizida ish samaradorligi yuqori, 20 foizida o'rta va 15 foizida past darajada qayd etildi. Lavozim o'sishi va mukofotlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarning ham shifokorlarning resurslari bilan uyg'unlashgan holda oshgani kuzatildi.

Obyektiv ko'rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida gender va ish staji omillari ham hisobga olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yosh shifokorlar motivatsiyani oshirish orqali qisqa muddatda samaradorlikni kuchaytirishi mumkin, uzoq stajga ega shifokorlar esa tajriba va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishadi. Shu bilan birga, jamoaviy ish va rahbarlik tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

### Korrelyatsion tahlil va bog'liqlik natijalari

Tadqiqot natijalarini chuqurlashtirish maqsadida shifokorlarning professional karyera resurslari va obyektiv ko'rsatkichlari o'rtasida korelyatsion tahlil o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ichki motivatsiya va ish samaradorligi o'rtasida yuqori ijobiy bog'liqlik mavjud ( $r = 0,68$ ,  $p < 0,01$ ). Bu motivatsiyasi yuqori bo'lgan shifokorlar ish samaradorligi va bemorlar bilan muloqot sifatini yaxshiroq ta'minlashini anglatadi.

Tashqi resurslar, xususan, ish sharoiti va rahbariyat tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash bilan ish samaradorligi o'rtasida ham sezilarli bog'liqlik aniqlandi ( $r = 0,55$ ,  $p < 0,05$ ). Shuningdek, ichki va tashqi resurslar uyg'unlashganda, obyektiv ko'rsatkichlarning yanada yuqori bo'lishi kuzatildi.

Korelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shifokorlarning ishga bo'lgan qoniqishi, motivatsiyasi va professional resurslari bir-birini mustahkamlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jamoaviy qo'llab-quvvatlash va malaka oshirish dasturlari ham ish samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

### Faktorli tahlil va asosiy komponentlar

Shifokorlarning professional karyera resurslari va obyektiv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida faktorli tahlil o'tkazildi. Ushbu tahlil orqali professional resurslarning asosiy komponentlari aniqlanib, ularning ish samaradorligi, lavozim o'sishi va malaka darajasi bilan bog'liqligi baholandi.

Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, uchta asosiy komponent aniqlandi:

- 1. Ichki resurslar komponenti:** shaxsiy motivatsiya, refleksiya, professional qaror qabul qilish qobiliyati va emotsional barqarorlik. Ushbu komponent ish samaradorligi bilan eng yuqori ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi ( $r = 0,68$ ,  $p < 0,01$ ). Shifokorlar ichki resurslarini rivojlantirish orqali murakkab vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- 2. Tashqi resurslar komponenti:** ish sharoiti, jamoaviy qo'llab-quvvatlash, rahbarlik madaniyati va malaka oshirish imkoniyatlari. Ushbu komponent bilan ish samaradorligi o'rtasida ham sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjud ( $r = 0,55$ ,  $p < 0,05$ ). Shifokorlar tashqi resurslardan samarali foydalanish orqali obyektiv ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishadi.



3. **Motivatsiya va qoniqish komponenti:** ishga qoniqish, kasbiy motivatsiya va karera maqsadlariga erishish. Ushbu komponent obyektiv natijalarni, jumladan, lavozim o'sishi va mukofotlarni prognoz qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Faktorli tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki va tashqi resurslar o'zaro uyg'unlashganda shifokorlarning professional karyera samaradorligi maksimal darajaga yetadi. Shu bilan birga, faktorlar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar shifokorlarning karyera rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, gender va ish staji farqlari professional resurslar va obyektiv ko'rsatkichlar o'rta-sidagi bog'liqlikni o'rganishda hisobga olinishi zarur. Bu holat shifokorlar uchun individual rivojlanish strate-giyalarini ishlab chiqishda, jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda hamda ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora –tadbirlar to'g'risida" gi 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 –sonli Qarori //http://lex.uz.
2. Karimova V.M., Akramova F.A. va boshqalar. Psixologiya. Darslik. - T.: TDIU, 2012. - 387 b.
3. B.A.Raximov. Psixologiya fanida shifokorlar kasbiy motivatsiyasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili // "Yoshlar manaviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Toshkent-2020. 84-85 b.
4. Башмаков О.А., Петросов С.Н., Гурдус В.О., Соловев В.В. Профессиональная деятельность современного врача: ее особенности и мотивация // Вестник Всероссийского общества специалистов по медикосоциальной экспертизе, реабилитации и реабилитационной индустрии. – 2014. – № 2. – С. 90-94.
5. Долганов Д.Н., Законнова Л.И., Седовских М.Е. Мотивационная готовность и отношение к осуществлению научно-исследовательской деятельности // Вестник Кузбасского государственного технического университета. – 2015. – № 3(109). – С.172-181.
6. Черных А.В., Косянчук Н.М. Динамика профессиональной мотивации медиков // Педагогическое мастерство и педагогические технологии. – 2015. – № 3 (5). – С. 123-125.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.